11. Akademik talablar

O‘qituvchi va talaba o‘trasidagi o‘zaro munosabat samimiy va beg‘araz bo‘lishi lozim, talaba mustaqil bajargan topshiriqlarni belgilangan tartibda elektron pochta yoki o‘quv platforma orqaliyuboradi va javobni ham shu tartibda oladi. Belgilangan muddatda bajarilmagan topshiriqlar qayta qabul qilinmaydi. O‘qituvchi talaba tomonidan bajarilgan topshiriqlarni antiplagiat dasturida tekshiradi, originallik darajasi 70 foizdan past bo‘lgan ishlar baholash uchun qabul qilinmaydi. Talabaning bajargan topshirig‘i 2 martagacha antiplagiat dasturida tekshirilishiga imkoniyat beriladi, natija talab darajasida bo‘lmasa, ish qabul qilinmaydi.

O‘quv uslubiy boshqarma boshlig‘i: **F.Odilov**

Fakultet dekani: **S.Ismailov**

Kafedra mudiri: **B.Ro‘zimov**

Tuzuvchi: **M.Abdullayev**

OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlandi”
O’quv ishlari bo’yicha prorektor:
B.M.Axmedov
“28”- avgust 2025-yil

“Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi

MAKROIQTISODIYOT
FAN SILLABUSI
(MIKIQ14510)
(sirtqi)

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta‘lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta‘lim yo‘nalishi:	60410100 - Iqtisodiyot

Andijon– 2025

© Ushbu hujjat Andijon davlat universiteti mulki hisoblanadi va uni oluvchilar uchun maxfiy bo‘lib, to‘liq yoki qisman nusxa ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki ko‘paytirilmasligi yoki uchinchi shaxslarga berilmasligi kerak. Ushbu materialni ko‘paytirish, tarqatish, nusxalash, oshkor qilish, o‘zgartirish, tarqatish yoki nashr etishning har qanday shakli qat’iyan man etiladi.

Kun	
Avgust 2025	Ushbu sillabus Andijon davlat universiteti kengashining 2025-yil “28”-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.
	Tuzuvchilar: Abdullayev Mirzohid G‘oyibberdiyevich, Iqtisodiyot va moliya kafedrasi dotsenti, i.f.f.d (PhD), tel. +998 95 017 07 67 Abdullayev Donyorbek G‘oyiberdiyevich, Iqtisodiyot va moliya kafedrasi o‘qituvchisi, tel. +998 95 070 45 99
	Taqrizchilar: Zufarova G.A. – Andijon davlat texnika instituti «Iqtisodiyot » kafedrasi mudiri, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent. Nurmatov D.N – ADU “Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi, i.f.n., professor

Mundarija:

MIKIQ14510: MAKROIQTISODIYOT 4
1. Fan tavsifi 4
2. Fanning dastlabki rekvizitlari 4
3. Fanning maqsadi 4
4. Ta'lim berish natijalari 4
5. Ta'lim berish usullari 5
6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar 5
7. Adabiyotlar 6
8. Soatlar/Kreditlar 6
9. Fanning tarkibiy tuzilishi 6
10. Talabalar bilimini baholash 12
11. Akademik talablar 12

MAKROIQTISODIYOT (MIKIQ14510)

1. Fan tavsifi

Iqtisodiyotda tarkibiy islohotlar va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni yanada chuqurlashtirish, uning ko'lamini kengaytirish bilan bog'liq masalalarning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganishda "Makroiqtisodiyot" fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bugungi kunda hukm surayotgan global raqobat sharoitida iste'molchilar talabining o'zgarishi, real sektorda yaratilayotgan tovar va xizmatlar narxining shakllanishi, foydani maksimallashtirish, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish, shuningdek, narxga va boshqa omillarga bog'liq talab va taklif elastikligining mazmun mohiyati, davlatning bozorga aralashuvi, ya'ni tovarlarga minimal va maksimal narxlarni o'rnatish va uning oqibatlari bilan bog'liq tushunchalar, qarashlarni sababiy bog'liqlikda tizimli tahlil etishda "Makroiqtisodiyot" moduli alohida o'rin tutadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad bo'lib hisoblanadi. Davlat iqtisodiy siyosatining nazariy asoslari sifatida tan olinadigan fanlar qatorida "Makroiqtisodiyot" alohida o'rin tutadi.

Yalpi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini, resurslarning to'liq bandliligini, inflyatsiyaning past sur'atlarini va to'lov balansining muvozanatini ta'minlash nuqtai nazaridan mamlakat iqtisodiyotini bir butun holda tadqiq qilish va uni makroiqtisodiy tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganish "Makroiqtisodiyot"ning predmetini tashkil etadi.

Fanning "Makroiqtisodiyot" moduli milliy iqtisodiyotning rivojlanishi bilan bog'liq barcha jihatlarni, jumladan mehnat resurslari, tovarlar, pul bozorlarining amal qilishi, monetar, fiskal va tashqi savdo siyosatini amalga oshirish hamda boshqa masalalarni qamrab oladi.

2.Fanning dastlabki rekvizitlari

Ushbu fan uchun oldindan bilim (prerekvizitlar) talab etilmaydi.

3.Fanning maqsadi

- "Makroiqtisodiyot" fanini o'qitishdan maqsad – Talabalarda makroiqtisodiyot nazariyasi va davlatning makroiqtisodiy siyosati to'g'risida bir tizimga solingan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

  Fan o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:
- makroiqtisodiyot fanining predmetini, ob'ekti hamda makroiqtisodiy agentlar; makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning mohiyati va ularni hisoblash shartlari;
- tovarlar va xizmatlar bozorida makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmining mohiyati;
- pulga talab, pul taklifi va pul bozorida muvozanatga ta'sir etuvchi omillar;
- byudjet-soliq va pul-kredit siyosatining maqsadlari, vositalari, ko'rinishlari;
- iqtisodiy o'sishning mohiyati, o'lchanishi, ommillari va modellari;
- tashqi savdo siyosatining nazariy asoslari va vositalari;
- mamlakat to'lov balansining tuzilishi, makroiqtisodiy ahamiyati va uni tartibga solish usullari;
- valyuta kursining mohiyati, makroiqtisodiy ahamiyati, uni belgilovchi omillar va barqarorligini ta'minlash shartlari haqida tasavurga ega bo'lishi;

4.Ta'lim berish natijalari

Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

✓ makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash;

- ✓ asosiy makroiqtisodiy modellarning o'zgaruvchilarini aniqlash va tenglamalarini tuzish;
- ✓ tovarlarlar va xizmatlar bozorida qisqa va uzok muddatli muvozanatni ta'minlash mexanizmini tushuntirib berish;
- ✓ pul bozorida muvozanat yuzaga kelishining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- ✓ makroiktisodiy siyosatning iqtisodiy jarayonlar va alohida ko'rsatkichlarga ta'sir ko'rsatishi qonuniyatlarini aniqlash;
- ✓ turli makroiqtisodiy vaziyatlarda byudjet-soliq yoki pul-kredit siyosatini qo'llash hamda o'zaro muvofiqlashtirish shartlarini tushuntirib berish;
- ✓ tashqi savdo siyosati va valyuta kursini tartibga solish orqali to'lov balansi holatiga, yalpi talab va yalpi taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatish usullarini tavsiflab berish;
- ✓ ochiq iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi hamda makroiqtisodiy siyosatning o'ziga xos xususiyatlarini, milliy va jahon iqtisodiyoti darajasida bozor mexanizmi qanday amal qilishini izohlab berish

5. Ta'lim berish usullari

– real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
– esse, tezis va maqolalar yozish;
– vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish;
– jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
– muhokamalarda ishtirok etish;
– kichik guruhlarda ishlashni tashkil etish;
– loyiha ishini bajarish;
– mustaqil ishlarni bajarish;
– taqdimot tayyorlash;
– turli darajadagi testlarni yechish;
– so'rov o'tkazish;
– muammoni hal qilish.

6. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

1. Mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida korxona foydasi va uni maksimallashtirish yo'llari
2. Talab va taklif qonuniga ko'ra narx belgilash usullari
3. Talab va taklif elastikligiga ko'ra soliq yukini hisoblash
4. Iste'molchining bozordagi hatti-harakati va uning tanlovi nazariyasi
5. Ishlab chiqarish xarajatlarini minimallashtirish shartlari va korxonaning zararsiz ishlash nuqtasini hisoblash yo'llari
6. Raqobatlashgag bozorda qisqa muddatli oraliqda firma foydasini maksimallashtirish va uning taklifi
7. Raqobatlashmagan bozor sharoitida monopol narx belgilash va bozor hokimiyati
8. Mehnat bozori va korxonalarda mehnat resurslaridan foydalanish
9. Kapital qo'yilmalar va kapital bozori
10. Ishlab chiqarish jarayoniga yangi, samarali texnologiyalarni tatbiq etish zarurati va istiqbollari
11. Makroiqtisodiy modellar. Asosiy makroiqtisodiy modellarning qiyosiy tahlili
12. Milliy hisoblar tizimida yalpi ichki mahsulot ko'rsatkichini hisoblash shartlari va usullari

13. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili
14. O'zbekiston Respublikasining YalM tarkibidagi o'zgarishlar tahlili
15. O'zbekiston Respublikasida mehnat bozorining shakllanishi va ishsizlikning o'ziga xos xususiyatlari
16. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishdagi roli
17. Inflyatsiyaning mohiyati va kelib chiqish sabablari
18. Inflyatsiyaga qarshi siyosat
19. Filips egri chizig'i. Modelning zamonaviy talqini
20. Iste'mol va jamg'arish funktsiyalari
21. Ratsional kutish nazariyasi
22. Investitsiya funktsiyasi va omillari
23. O'zbekiston Respublikasi investitsiya siyosati
24. Yalpi talab – yalpi taklif modeli
25. Yalpi talab va yalpi taklifni rag'batlantirish yo'llari
26. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat modeli
27. Pul bozoridagi muvozanat
28. Soliqlarning makroiqtisodiy mohiyati va roli
29. O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini takomillashtirish yo'llari
30. Davlat byudjeti tarkibi va uni takomillashtirish yo'llari
31. Byudjet-soliq siyosati
32. O'zbekiston Respublikasi byudjet-soliq siyosati
33. Byudjet taqchilligi
34. Pul-kredit siyosati
35. O'zbekiston Respublikasi pul-kredit siyosati
36. Pul-kredit siyosati va ulardan foydalanish amaliyoti
37. IS-LM modelida byudjet-soliq va pul-kredit siyosati
38. Iqtisodiy o'sish omillari va tiplari
39. Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellari
40. Iqtisodiy o'sishning neoklassik modellari

7. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar:

1. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 7 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2013
2. Andrew B. Abel, Ben S. Bernanke, Dean Croushore. Macroeconomics. 7 th edition. USA: Amazon, 2013
3. G'.E.Zaxidov, M.T.Asqarova, Z.A. Djumayev, L.F.Amirov, H.A. Hakimov. Makroiqtisodiyot. Dasrlik. T.: IQTISODIYOT, 2019
4. Джумаев З.А. Макроиктисодиёт. Ўқув кўлланма. –Т.: Инновацон ривожланиш нашриёт матба уйи, 2018. – 300 бет.
5. N.M.Maxmudov, A.B.Shakarov, X.A.Ulashev, J.A.Shakarov Makroiqtisodiyot. (Darslik) - T.:«Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022,454 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Makroiqtisodiyot: O'quv qo'llanma / E.I.Ergashev, N.S.Kasimova, U.K.Muxtorova, G.X.Nazarova, M.E.Jabbarov. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. -352 b.
2. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot: Darslik /E.I.Ergashev, I.Bakiva, Sh.Fayzullayev, B.Shermuxamedov. –T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. -680 b.
3. Носова С. Микроэкономика.Макроэкономика. Учебник. –М.: Кнорус, 2014, - 468 с.
4. Золоторчук В.В. Макроэкономика: Учебник. –М.: ИНФРА-М, 2015. – 537 с.

Axborot manbalari:

1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari portal
3. www.ziyonet.uz -O'zbekiston Respublikasi ta`lim portal
4. www.UNWTO –Butunjahon turizm tashkiloti portal
5. www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi portali

8. Soatlar/Kreditlar

4,5-semestrlar kredit modul miqdori – 6/4=10 ECTS

Ta'lim turi	Ma'ruza	Seminar mashg'ulot	Laboratoriya	Mustaqil ta'lim	Jami
Sirtqi	10/8	12/8	0	158/104	300
Yillik, jami	**18**	**20**	**0**	**262**	**300**

9. Fanning tarkibiy tuzilishi

Sirtqi:

T/r	Mavzular	Ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlar rejasi	Soatlar		
			Ma'ruza	Seminar	Mustaqil
		IV-semestr			
1	"Makroiqtisodiyot" faniga kirish. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	1. "Makroiqtisodiyot" fanining shakllanishi tarixi, predmeti va obyekti. 2. Makroiqtisodiyot fanining tadqiqot usullari. 3. "Resurslar-tovarlar va xizmatlar" hamda "daromadlar-xarajatlar" doiraviy oqimi modeli. 4. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar. 5. Yalpi ichki mahsulot tushunchasi va uni hisoblashning asosiy shartlari. 6. YaIM ni ishlab chiqarish uslubida aniqlash. 7. YaIMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. 8. YaIM ni daromadlar bo'yicha hisoblash	2	2	30
2	Iqtisodiy tebranishlar. Ishsizlik. Inflyatsiya va inflyatsiyaga qarshi siyosat.	1. Iqtisodiy davrlar va iqtisodiy tebranishlarning sabablari. 2. Ishsizlik tushunchasi va ishsizlik darajasining o'lchanishi. 3. Ishsizlikning iqtisodiy oqibatlari.A. Ouken qonuni. 4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari, namoyon bo'lish shakllari va ishsizlik darajasiga ta'siri. 5. Inflyatsiyaning mohiyati va hisoblanish usullari. 6. Inflyatsiyaning turlari. Talab va taklif inflyatsiyasi. 7. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liklik. 8. Fillips egri chizig'i.	2	4	30
3	Yalpi talab – yalpi taklif modeli. Iste'mol, jamg'arish va investitsiya	1. Yalpi talab-yalpi taklif modeliga umumiy tavsif. 2. Yalpii talab tushunchasi va grafigi. 3. Yalpi talabning baho va bahodan boshqa omillari. 4. Yalpi taklif grafigi va omillari. 5. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funktsiyalari. 6. Iste'mol va jamg'arishga o'rtacha hamda chegaralangan moyillik. 7. Investitsiyalarning mohiyati, grafigi va funktsiyasi.	2	2	30
4	Keynsning tovarlar va xizmatlar bozorida	1. Keynsning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asoslari. 2. Haqiqiy va rejalashtirilgan xarajatlar.	2	2	28

	makroiktisodiy muvozanat modeli.	3. «Keyns xochi». 4. Ishlab chiqarish hajmining muvozanat darajasiga erishish mexanizmi.			
5	Davlat byudjeti, soliqlar va davlat qarzi. Pul bozorida muvozanat.	1. Davlat byudjetining mohiyati va funktsiyalari. 2. Davlat byudjeti xarajatlari. 3. Soliqlarning turlari va funktsiyalari. 4. Pul taklifi. 5. Bank multiplikatori. 6. Pul taklifining kengaytirilgan modeli. 7. Pul multiplikatori. 8. Pul bozorida muvozanat.	2	2	30
	Jami soat		**10**	**12**	**158**
	V-semestr				
1	Byudjet-soliq siyosati	1. Byudjet-soliq siyosatining mohiyati va usullari. 2. Davlat xarajatlari, soliq va balanslashgan byudjet multiplikatorlari. 3. Diskret va nodiskret fiskalь siyosat. 4. Byudjet taqchilligi va ortiqchaligi.	2	2	26
2	Pul-kredit siyosati	1. Pul tushunchasi va uning funktsiyalari. Pul agregatlari. 2. Pulga talabning klassik nazariyasi. 3. Pulga talabning keynscha nazariyasi.	2	2	26
3	Iqtisodiy o'sishning umumiy tavsifi va neokeynscha modellari.	1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va o'lchanishi. 2. Iqtisodiy o'sishning omillari va tiplari. 3. Iqtisodiy o'sishning keynscha modellarining umumiy tavsifi. Ye.Domar modeli. 4. Iqtisodiy o'sishning R. Xarrod modeli.	2	2	26
4	Valyuta kursi.	1. Valuta va jahon valuta tizimi tushunchasi. 2. Valuta bozorini davlat tomonidan tartibga solish usullari. 3. Valuta kursi va uni belgilovchi omillar.	2	2	26

		4. Xarid qobilyati pariteti. 5. Makroiqtisodiy siyosatning nominal va real valuta kurslariga ta'siri.			
	Jami soat		**8**	**8**	**104**
	Umuiy jami soat		**18**	**20**	**300**

10. Talabalar bilimini baholash

Maksimal va saralash ballari	**Ma'ruza mashg'ulotlarida 30 ball**		**Amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlarida 30 ball**		**jami**	**Yakuniy nazorat**	Jami
	Oraliq nazoat uchun	Mustaqil ta'lim	Joriy nazorat uchun	Mustaqil ta'lim			
Maksimal bal 100%	15	15	15	15		40	
Saralash bali 60%	Saralsh bali 36 ball						
Nazoratni o'tkazish muddati va shakli	Fanning 70 foiz o'zlashtirilganda (yozma, amaliy ish, og'zaki)		Amaliy, seminar, laboratoriyamashg'ulotlar davomida		60	Fakultet dekani tomonidan tasdiqlangan grafik asosida, YN jarayoni test shaklida HEMIS platformasi orqali amalga oshiriladi (ayrim fan xususiyatlaridan kelib chiqib YN turi boshqa shakllarda ham o'tkazilishi mumkin)	100

Talabaning semestr davomida fan bo'yicha to'plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

YaB=JN+ON+YaN

Bu yerda:

JN — joriy nazorat; ON — oraliq nazorat; YaN — yakuniy nazorat.

Eslatma: dars mashg'ultotlaridagi ishtiroki, joriy nazorat va oraliq nazoratlar uchun ajratilgan jami ballar (60 ball) ning kamida 60 foizi (36 ball)ni to'play olmagan talabaning yakuniy nazoratga kirishiga ruxsat berilmaydi.